



GASTRONOMIK BIRLIKLARDA POLISEMANTIK HODISASI

Temirova Kamola Baxtiyor qizi

*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
kamolatemirova28@gmail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada gastronomiyaga oid birliklar, leksik-semantik munosabatlar tarkibiga kiruvchi polisemantik munosabatlar, shuningdek ko‘p ma’noli gastronomik birliklarning lug‘atlarda ifodalanishi haqida fikr yuritilgan. Ko‘p ma’noli gastronomik birliklar mavzu jihatdan guruhlanib, guruhlarga mansub leksemalar izohlangan.

Kalit so‘zlar: gastronomik birliklar, leksik-semantik munosabatlar, polisemiya – ko‘p ma’nolilik, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, taomlar, non va non mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, shirinliklar, ziravorlar, degustatsion birliklar va hokazo.

МНОГОЗНАЧНЫЙ ФЕНОМЕН В ГАСТРОНОМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

Аннотация: В статье рассматривается репрезентация гастрономических единиц, полисемантические отношения, входящие в состав лексико-семантических отношений, а также репрезентация полисемантических гастрономических единиц в словарях. Многозначные гастрономические единицы сгруппированы по тематике, и даны пояснения лексем, входящих в группы.

Ключевые слова: гастрономические единицы, лексико-семантические связи, полисемия - многозначность, собственный слой, ассимилированный слой, блюда, хлеб и хлебобулочные изделия, продукты питания, сладости, специи, дегустационные единицы и т. д.

POLYSEMANTIC PHENOMENON IN GASTRONOMIC UNITS

Annotation: This article discusses the concepts of gastronomic units, polysemantic relations that are part of lexical-semantic relations, as well as the representation of polysemantic gastronomic units in dictionaries. Polysemantic gastronomic units are grouped thematically, and the lexemes belonging to the groups are explained.

Key words: gastronomic units, lexical-semantic relations, polysemy - multiple meanings, own layer, assimilated layer, dishes, bread and bakery products, food products, sweets, spices, tasting units, etc.

KIRISH. O‘zbek tili leksik sathida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan gastronomik birliklar, oziq-ovqat mahsulotlari leksik-semantik guruhi sistemalilik tamoyiliga ko‘ra o‘z ichida bir qancha leksik-semantik munosabatlarni ham namoyon qiladi.

Leksik-semantik munosabatlar orasida keng tarqalgan munosabatlardan biri polisemantik munosabat bo‘lib, polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar bilangina emas, so‘zlarning leksik ma’nolari bilan ham o‘lchanadi. Demak, so‘zlarning ko‘p ma’noliligi — polisemiya til boyishida o‘z o‘rniga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

M.Mirtojiyev, N.Mahmudov ko‘p ma’nolilik so‘zning obyektiv olamdagi rang-barang narsalarni anglatish boyligi, imkoniyati ekanligini ta’kidlab, bu hodisa, albatta, polisemantik so‘z tarkibida kelgan gap bilan bog‘liqligi, shu so‘z imkoniyatlariga ko‘ra saylanishi va turli so‘zlar bilan aloqaga kirishishi haqida fikr bildirishgan [1.412].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ko‘p ma’nolilik hodisasi gastronomik terminologiyada ham ko‘plab topiladi. Gastronomik birliklar, oziq-ovqat mahsulotlari nomlari mavzuviy guruhlaridan o‘rin olayotgan o‘z va o‘zlashgan so‘zlar jonli tilda faollashib ko‘p ma’nolilikni hosil qiladi. Lug‘atlardan o‘rin olgan ko‘p ma’noli gastronomik birliklarlarda o‘z qatlam yetakchilik qiladi (*atala, achchiq-chuchuk, achchiq choy, biqtirma* (shevaga oid so‘z bo‘lib, go‘shni past olovda qaynatib tayyorlanadigan taom), *bol, bulamiq, bo‘tqa, bo‘g‘irsoq, dimlama, doshqozon, gazzuv, jaz, jo‘va, ko‘k somsa, ko‘kat, moy, moshkichiri, qatirma, qaynatma, qizil* (vino turi), *sanchqi, sut, tomizg‘i, tovuq, tuppa, turp, ugra, yorma, yoyma, yupqa* va hokazo).

Bir til ikkinchi til evaziga boyishi hisobida o‘zga tillardan bizning kundalik hayotimizda foydalanayotgan ko‘p ma’noli gastronomik terminlar ham talaygina.

Arab tilidan o‘zlashgan terminlar (**asal, holva, ta‘m, zaytun, za‘faron, sharbat**); *fors tilidan o‘zlashgan terminlar* (*non, badya, barkash, behi, billur, boda, danak, dekcha, dolchin, durda, jom, kadi, meva, pista, rapida, rezavor, sardak, turush, shira, shirava*); *ruscha* (*ikra, rom, samovar, vilka*); *gollandcha* (*bak*); *ispancha* (*kakao*); ***fransuzcha* (karamel, krem, marinad, rulet); inglizcha (kokteyl, kakao); armancha (lavash); yunoncha (limon, zefir); nemischa (tarelka); fors tilidan xitoy tiliga o‘tgan choy va hokazolar.**

Lug‘atlarda ko‘p ma’nolilikni hosil qiluvchi 70 dan ortiq gastronomik terminlar leksik-semantik tomondan quyidagi mavzuviy guruhlariga bo‘linadi:

1. **Taomlar:** *atala, achchiq-chuchuk, biqtirma, bulamiq, bo‘tqa, bo‘g‘irsoq, moshkichiri, qaynatma, to‘ppa, dimlama, ikra, lavash, marinad, sardak, ugra, yorma, yupqa;*
2. **Non va non mahsulotlari:** *non, qatirma, turush;*
3. **Oziq-ovqat mahsulotlari:** *barra (go‘sh), moy, jaz, kadi, sut, turp, shirava (qaymoq), tomizg‘i, tovuq;*
4. **Shirinliklar:** *asal, bol, durda, holva, kakao, karamel, zefir, krem, rulet;*
5. **Ichimliklar:** *boda, gazzuv, kokteyl, qizil (vino turi), rom (spirtli ichimlik), sharbat, shira, choy;*

6. **Ziravorlar:** *dolchin, ko‘k, ko‘kat, rezavor, za‘faron;*
7. **Mevalar:** *danak, limon, meva, pista, zaytun, behi;*
8. **Degustatsion birliklar:** *ta‘m, achchiq;*
9. **Uy-ro‘zg‘or buyumlari:** *bak, barkash, dekcha, doshqozon, jom, jo‘va, rapida, samovar, sanchqi, vilka, kosa, tarelka va hokazolar.*

Ayrim o‘zlashma gastronomik terminlarning lug‘atlarda ifodalanishini qarab o‘tamiz.

Kelib chiqishi fors tiliga mansub bo‘lgan **“non”** ko‘p ma’noli so‘z hisoblanadi. Birinchi ma’nosi, xamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choq, tova va shu kabilarda pishiriladigan yegulik. Masalan, *bug‘doy non, zog‘ora non, shirmoy non, bo‘lka non va hokazo*. Ikkinchi ma’nosi, umuman, yegulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa.

Lug‘atda non bilan bog‘liq frazeologik birliklar ham qayd etilgan:

Non gadoyi – nonga zor, kambag‘al-qashshoq. *U yo o‘z-o‘zini o‘ldirardi, yo xizmatkor yigit bilan bir yurtga qochib, kambag‘allikda, non gadoyi bo‘lib yashardi. Oybek, Tanlangan asarlar; Noni butun* – tirikchilik, yashash uchun zarur narsalari but, muhayyo, hech narsadan kamchiligi yo‘q, bekam-ko‘st, to‘kis. *Sartarosh u dunyo, bu dunyo xor bo‘lmaydi. Hamma vaqt noni butun [dedi kampir Shodiga]. E. Raimov, Ajab qishloq; Noni yarimta* – biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish-tutishi kamaygan, yetishmay qolgan. *Nima, Qobilov kelib, nonimiz yarimta bo‘lib qoldimi, aksincha, qo‘lni-qo‘lga berib ishlangiz, bitta noningiz ikkita bo‘ladi. S. Mahkamov, Shogird; Nonini tuya qilmoq* – bironvga tegishli haqning ma‘lum qismini olmoq, o‘zlashtirmoq. *“Bo‘shanglik qilsam, nonimni tuya qilib berishlari aniq”, — o‘yladi Yo‘lchi. Oybek, Tanlangan asarlar [2.398].*

Fransuz tilidan o‘zlashgan **“rulet”** (roulette – g‘ildirakcha, rolik < rouler – g‘ildiratmoq, dumalatmoq; o‘ramoq, o‘rab yig‘ishtirib qo‘ymoq) o‘zlashmasi ham polisemantik so‘z bo‘lib, *“xamir va shirinlikni navbatma-navbat bir necha qavat qilib pishirilgan o‘rama pirog”, “tilimlab maydalangan go‘sh va mol yoki qo‘y qornini ustma-ust qo‘yib o‘rab, yo‘g‘on qazi shaklida pishirilgan yaxna ovqat”* ma’nolarida qo‘llanadi [5.468.]

Kelib chiqishi armancha bo‘lgan **“lavash”** termini (lavash-yupqa, yassi non) *“bug‘doy unidan oshirilmay xamir tayyorlanib, yupqa qilib yoyilgach, ikki yuzasi qizartirib olinadigan non turi; turli taomlar tayyorlash uchun yarimmahsulot”* ma’nosida (*Lavashning tarixi juda qadimga borib taqaladi. Bunday turdagi nonni shumerlar, bobilliklar, misrlilar, etrusklar va Yaqin Sharqda yashagan boshqa qadimgi xalqlar tayyorlashgan. Gazetadan*), shuningdek, *“lavash xamiri ichiga mol yoki tovuq go‘sh, qovurilgan kartoshka, pomidor, mayonez, ba‘zan pishloq solib, o‘rab tayyorlanadigan tezpishar taom”* (Toshkentdagi yangi “Evos” lavash markazida 15 metrli lavash tayyorlandi) [2.20] ma’nosida izohlanadi.

Ispancha **“kakao”** o‘zlashmasi ham ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, *“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “1.Urug‘idan shokolad tayyorlanadigan doim yashil tropik daraxt; 2.Shu daraxtning urug‘i va undan maxsus tayyorlangan kukun; 3.Shunday kukundan qo‘shib tayyorlangan ichimlik”* deb ta’riflanadi [6.711].

Yunonchadan o‘zlashgan “zefir” (yun. Zebhyros-yunon migologiyasidagi g‘arbiy shamol ma’budi nomi) “Ensiz bo‘ylama yo‘llari bo‘lgan, yupqa va nafis ip gazlama. Oq zefir. Zefir ko‘ylak” ma’nosida, shuningdek, “Meva sharbatiga shakar qo‘shib pishirilgan quyuq shirinlik; meva qiyomi” ma’nosida ifodalanadi [3.361].

Inglizcha “*kokteyl*” (“*coctail*” – xo‘rozning dumi) o‘zlashmasi ham polisemantik tabiatga ega. Kokteyl leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da “spirtli ichimliklarning (konyak, rom va b.) ba‘zan qand, meva va turli ziravorlar qo‘shib tayyorlanadigan, sovutilgan aralashmasi; meva sharbati, sut va shu kabilarga shakar, rezavor va boshqalar qo‘shib tayyorlanadigan alkogolsiz ichimlik deb izohlangan. A.Shxumishxova “kokteyl” o‘zlashmasi lug‘aviy ma’nosi bilan unga berilgan belgisi etimologik ma’nosidan tamoman uzoqlashganligini ta’kidlab, hozirgi vaqtda “*har qanday aralashma*” ma’nosida qo‘llanayotganini keltirib o‘tadi [1. 413].

Fors tilidan xitoy tiliga o‘zlashgan, hozirgi kunda keng iste’molda bo‘lgan ichimliklardan biri “choy” ham polisemantik so‘z sanalib, bir necha xil ma’nolarda ifodalanadi: 1) Bargi damlab ichiladigan, janubiy o‘lkalarda o‘suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta. *Choy plantatsiyalari. Choy o‘simligi 2-3 yoshlik bo‘lganda, tuplarga shakl beriladi, yon shoxlar kesiladi. “O‘zME”. 2) Shu o‘simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari. Ko‘k choy. Hind choyi. Seylon choyi. Gruzin choyi. Bir damlam choy. Ko‘k choyni ko‘k choynakka damlab, ko‘k ko‘zli, ko‘ylagi ko‘k Karimga berdimi? Tez aytish. 3) Shu o‘simlikning maxsus ishlangan, maydalangan barglaridan damlangan xushbo‘y ichimlik. Bir piyola choy. Achchiq choy. Issiq choy. Yaxna choy. Hindining ichgani asl choy bo‘lar. “Gulnorpari”. 4) Shu ichimlik bilan birga ovqatlanish. Ertalabki choy. Tushki choy. Choy mahallida goh kulib, goh yig‘lamsirab, o‘zi, bolalari to‘g‘risida gapirdi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.*

Choyning bir necha turlari mavjud: qora choy ikki ma’noda: 1) qurug‘i qora tusda, damlaganda, to‘q qizg‘ish rang chiqaradigan choy; 2) sutsiz choy ma’nolarida izohlanadi. Sut choy – sutli choy; olma choy va hokazo [3.823].

Fransuz tilidan o‘zlashgan “*karamel*” (“*caramel*” < lot. *canna mellis* – shakarqamish) o‘zlashmasi ham polisemantik bo‘lib, “*konfetning shakar va qiyomdan, xushbo‘y hidli va rang beruvchi modda qo‘shib tayyorlanadigan qattiq bir turi*”, “*qandolat mahsulotlarini rangdor qilish uchun ishlatiladigan qovurilgan shakar*” ma’nolarida qo‘llanadi [6.676].

Fransuzcha “krem” [fr. *creme*] qand, qaymoq, meva shirasi va shu kabilarni qo‘shib tayyorlangan nisholdasimon shirinlik (ko‘pincha tort, piroj-niy kabi konditer mahsulotlarini bezash uchun ishlatiladi) ma’nosida ifodalanadi. Krem kosmetologik termin hamdir, uning , kosmetik pardozi moyi; yog‘upa ma’nosi ham bor.

Charmdan qilingan oyoq kiyimlariga surkab, pardozlash uchun ishlatiladigan maxsus moy; etik moyiga ham krem deyiladi. *Qora krem. Jigar-rang krem. Etigimning kremi qayerda ? I. Rahim, Chin muhabbat* [6.921].

O‘zlashma oziq-ovqat nomlari kabi o‘z qatlamga mansub oziq-ovqat mahsulotlari nomlarida ham ko‘p ma’nolilik munosabati talaygina. Masalan, **“yorma”** – 1.oqlab to‘yilgan butun don, oqlangan g‘alla mahsuloti; 2.Shunday mahsulotdan tayyorlangan ovqat ma’nosida qo‘llanadi. **“Masalliq”** – 1.Umuman biror taom, yegulik tayyorlash uchun ishlatiladigan narsa; 2. Ovqat tayyorlash uchun zarur bo‘lgan, kerakli bo‘lgan mahsulot ma’nolarida ishlatiladi. Shuningdek, ushbu so‘z bilan birgalikda, bugungi kunda jonli tilda lotincha **“ingrediyent”** o‘zlashmasi ham qo‘llanmoqda. **“Tolqon”** – qovurilgan don, quritilgan non va hu kabilardan tuyib tayyorlangan yemish; 2. Umuman tuyilgan har qanday narsa ma’nolarini bildirib keladi. **“Tolqon”** leksemasi o‘rnida rus tilidan o‘zlashgan **“poroshok”** o‘zlashmasi ham jonli tilda ancha faol qo‘llanayotganini kuzatish mumkin [1.412].

Quyuq ovqatlar turiga kiruvchi, bolajonlarning sevimli taomlaridan biri **“bo‘tqa”** ham ko‘p ma’noli so‘z sanaladi: 1) Guruch, bug‘doy kabi donlardan qaynatib pishirilgan quyuq ovqat. (halim, shavla, shirguruch kabilar). – *To‘yga hech kimni chaqirmadik. Axir ikki tovoq bug‘doy bo‘tqa bilan qilingan to‘yni to‘y deb bo‘ladimi? –dedi chol. O.Husanov, Qo‘shiqchining taqdiri;* 2) Atalasimon quyuq narsa. Qog‘oz bo‘tqasi (qog‘oz sanoatida; 3) ko‘chma ma’noda ifodalangan, ya’ni chalkashtirib, aralash-quralash qilib yuborilgan narsa. Bo‘tqa bo‘lmoq 1) aralashib, ezilib, bo‘tqa holiga kelmoq [4.704].

Oshko‘klar turkumiga kiruvchi **“ko‘kat”** ham ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, uning quyidagi ma’nolari mavjud: 1) O‘sib turgan o‘t-o‘lan; o‘t-o‘simlik ma’nosida: *Qo‘ylarning barra ko‘katlarni o‘tkir tishlari bilan jodiday qirqib pishillashlari, qo‘zilarning onalarini qidirib ma’rashlari atrofni bosdi.* S.Anorboyev, Oqsoy. 2) Ovqatga qo‘shib yeyiladigan (kashnich, ukrop kabi rezavor) o‘simliklar; oshko‘k. *Xushbo‘y mevalar, ayniqsa ko‘katlar, turli nav sabzavotlar juda mo‘l yog‘ildi.* Oybek, Nur qidirib [6.977].

Non va non mahsulotlari sirasiga kiruvchi gastronomik termin **“qatirma”** ham ko‘p ma’noli so‘z sanaladi. Lug‘atda uning bir nechta ma’nolari izohlangan. Birinchi ma’nosi: oshirilmagan xamirdan qozonda yog‘siz pishirilgan yupqa non. *Otasiga deb, xurmachaga solingan oshning ustiga bitta qatirmani yopib, ro‘molchaga tugdi-da, chiqib ketdi.* Oydin, Gulsanam. Ikkinchi ma’nosi: kiyim yoqasi, yelkasi, ko‘kragi tekis tursin uchun avra bilan astar orasiga qo‘yiladigan kraxmallangan mato ham *qatirma* deb nomlanadi. *Ko‘kragiga qatirma qo‘yib tikishgan kostyum.*

3) So‘zlashuv tilida ko‘chma ma’noda qalin kir, qasmoq bo‘lib ketgan narsalarga ham *qatirma* deyiladi. *Umrida hammom va sovun ko‘rmagandan bo‘lsa kerak, ikki yuzi qatirma bo‘lib ketgan, qo‘y ko‘zli bola kelib, ro‘paramda to‘xtadi.* Sh. Rizo, *Qor yog‘di, izlar bosildi* [3.85].

Gastronomik termin sifatida baholanuvchi **“yupqa”** so‘zi ham bir necha ma’nolarda izohlanadi: 1) Qalin emas, ko‘ndalangiga ingichka; nozik. *Yupqa gazlama. Yupqa teri. Yupqa qog‘oz.* 2) Zich emas yoki qalin emas, siyrak (tuman, tutun, bulut va sh.k. haqida). *Daryo ustini yupqa tuman qoplagan.* Uchinchi ma’nosi esa ot turkumiga mansub so‘z bo‘lib, xamirni chalpakka o‘xshatib yoyib, ustiga yog‘da qovurilgan qiyma, sabzi solib, qozonda pishiriladigan

taom; cho‘zma ma’nolarini ifodalaydi. *Yupqa pishirmoq. – O‘qishda toliqib qolmasin, deb doim somsami, uch-to‘rtta yupqami pishirib qo‘yaman.* Oydin, Do‘ndiqdan ham yosh ekan [3.279].

Suyuq ovqat sanaluvchi **“atala”** ning ham bir necha ma’nolari mavjud: 1) Qizdirilgan yog‘ga un chalib, suv qo‘shib pishiriladigan suyuq ovqat. *Qiyma(li) atala. Yovg‘on atala. Namozgar-namozshom o‘rtasi uyga qaytib, atalami, ugra oshmi, apir-shapir ichib, yana ko‘chaga chopar edik.* G‘. G‘ulom, Shum bola. 2. Ko‘chma ma’noda atalasimon ovqat singari suyuq narsalarga ham atala deyiladi. *Yigitcha uni loyi atala bo‘lib yotgan bir ko‘chaga boshlab ketdi.* P. Tursun, O‘qituvchi. Atala bilan bog‘liq bir nechta frazeologik birliklar ham mavjud. Hadeb yiqilaveradigan yoki bo‘shashgan odamga hazil tariqasida *“Atala ichdingmi?”* iborasi qo‘llaniladi. Bo‘shashgan, lallaygan, lanj odam haqida *“Atala maxsum”* iborasidan foydalanamiz. Shevada esa “juda oson, yengil bitadigan ish haqida” *“Atalaga bismillo”* deb ishni boshlaymiz [4.165].

Oziq-ovqat mahsulotlari turkumiga kiruvchi, taom tayyorlashda keng foydalaniladigan **“moy”** termini ham o‘z qatlamga mavjud ko‘p ma’noli so‘z sanaladi. 1) Chorva mollari va ba’zi jonivorlar to‘qimalarida bo‘ladigan, tarkibida yog‘ bo‘ladigan narsa; 2) Shunday narsadan va ba’zi o‘simliklarning urug‘i, guli va mevasidan olinadigan, suvda erimaydigan modda; yog‘. *Soyadan yaxshi hosil olishimiz, oziq-ovqat sanoati uchun soya moyi ishlab chiqarishimiz mumkin.* Gazetadan. **Juoz moyi** – chigit, mag‘iz va shu kabilardan juvozda chiqarilgan moy *Qo‘shni hovlidan chuchitilgan juvoz moyining isi keladi.* S. Ahmad, Hukm.

Moy bilan bog‘liq ayrim frazeologik birliklar ham mavjud: Kir bo‘lib, yaltirab ketgan buyumlarga (asosan kiyim haqida) *moy bosgan* yoki *moyi chiqqan* iborasi qo‘llaniladi. Nihoyatda toza joyga nisbatan (yer satxi, pol va shu kabilar haqida) **moy tomsa** (yoki **to‘kil-sa, tushsa**) **yalagudek iborasidan foydalanamiz.** *Turdimatcho‘tal go‘laxxonani moy tomsa yalagudek qilib, aftidan, bor zehnini berib tozalab qo‘ygan edi.* A. Muxtor, Opa-singillar. Ko‘ngliga juda xush kelmoq; yoqib tushmoq ma’nosida *moydek yoqmoq*; O‘ziga juda ma’qul bilib, xush kelib gapirilganda **og‘zidan moy tommoq** iborasidan; Ishi, maishati juda yaxshi bo‘lsa **pichog‘i moy ustida**; Suhbatdoshning gapi, xabari juda ma’qul kelganda, yoqib tushganda **og‘zingga moy** iboralaridan foydalanamiz. Ro‘zg‘or, tirikchilikning bekam-ko‘st, yetarli ta’minlangani, to‘kinligi anglashilsa qozon ham, moy, cho‘mich ham iborasini qo‘llaymiz.

3) Yumshatish, harakatni ravonlashtirish, pardoiz va boshqa maqsadlarda ishlatiluvchi moddalarning umumiy nomiga ham moy deyiladi.

To‘rtinchi ma’nosi so‘zlashuv tilida kam qo‘llaniladigan bo‘yoq so‘ziga ham moy deyiladi. M: *Politsiya eshigi berk: yashil moy bilan sirlangan yog‘och panjaralar oldida tutaqqan xalq qaynaydi.* Oybek, Tanlangan asarlar [2.234].

XULOSA. Lug‘atlardan o‘rin olgan birliklar orasida o‘z va o‘zlashma qatlamdan iborat ko‘p ma’noli gastronomik terminlarning mavjudligi, ulardan kundalik hayotimizda keng foydalanishimiz tilimizning naqadar boyligi va jozibadorligini ifodalaydi. Shuningdek, polisemantik gastronomik birliklar mavzuvii lug‘at yaratilishiga asos bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rushana Nabiyeva. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlaridagi polisemantik munosabat haqida//Ta’limda innovatsion g‘oyalarni rivojlantirish asosida ilm-fan yutuqlarini joriy etish tendensiyalari. // xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy ishlari to‘plami. – Samarqand. SamDU Urgut filiali, 2024.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. I jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022.